

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

ME‘MORIY YODGORLIKLAR TA‘MIRLANISH TAJRIBASI TARIXIDAN.

Savriev Jasur Faxriddinovich

*Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o‘qituvchisi
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dos.*

+99890 647 20 26

savriyevjasur99@gmail.com

Annotatsiya: dastlab, O‘rta Zarafshon vohasi me‘moriy yodgorliklari o‘rganilishi tarixiga asosan XX asrning boshlaridan e‘tibor qaratilgan. Voha me‘morchiligida qurilganidan buyon ta‘mirlanmay xarobaga aylangan va foydalanishga yaramay, tashlandiq holga kelib qolgan yodgorliklar juda ko‘p edi. Ularni konservatsiyasi va restavratsilash to‘g‘risida qiziqish bilan ko‘plab sharqshunos olimlar qiziqishgan va o‘zlarining tavsiyalarini ko‘rsatib o‘tishgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida madaniy meros ob‘ektlarini o‘rganish, ta‘mirlash sohalarida ushbu olimlarning yozma ma‘lumotlari va chizmalariga alohida urg‘u berilishi natijasida ko‘plab yodgorliklar asl qiyofasini shakllantirilishga erishilmoqda.

Kalit so‘zlar: Voha, me‘morchilik, ta‘mirlash, madaniy meros, restavratsiya, konservatsiya, chizma, qiyofa, bino, tavsiya, xaroba, tashlandiq.

Аннотация: Первоначально история изучения архитектурных памятников Среднезаравшанского оазиса была сосредоточена в основном на начале XX века. С тех пор, как был построен оазис, многие памятники остались в руинах, неиспользуемые и заброшенные. Многие ученые-востоковеды проявили интерес к их сохранению и реставрации и предложили свои рекомендации. В первые годы независимости особое внимание уделялось письменным материалам и рисункам этих ученых в области изучения и реставрации объектов культурного наследия, что привело к восстановлению первоначального облика многих памятников.

Ключевые слова: Оазис, архитектура, реновация, культурное наследие, реставрация, сохранение, рисунок, внешний вид, здание, рекомендации, руины, заброшенность.

Abstract: Initially, the history of the study of architectural monuments of the Middle Zarafshan oasis was mainly focused on the beginning of the 20th century. Since the construction of the oasis architecture, there were many monuments that had not been renovated and had become dilapidated and unusable. Many oriental scholars were interested in their conservation and restoration and gave their recommendations. As a result of the special emphasis on the written information and drawings of these scholars in the fields of studying and restoring

cultural heritage objects in the early years of independence, the original appearance of many monuments has been formed.

Keywords: Oasis, architecture, renovation, cultural heritage, restoration, conservation, drawing, appearance, building, recommendation, ruin, abandoned.

Kirish. Mazkur maqola O‘rta Zarafshon vohasi yodgorliklarini o‘z ichiga qamrab olgan ayrim shaharlarning me‘moriy inshootlar hamda qurilish arxitekturasini haqida. O‘zbekistonning markaziy hududi, Zarafshon vohasida ushbu sohada amalga oshirilgan keng ko‘lamli o‘rganish natijasida ko‘plab madaniy meros ob‘ektlari aniqlanib yubileylar doirasi bilan bog‘liq tadbirlarda ta‘mirlanish jarayonlari izchillik bilan amalga oshirildi. Qadimgi shaharsozlik jarayonlari, uning me‘moriy arxitekturasini o‘rganish bir necha bosqichlarda amalga oshirilib bir qator yutuqlarga erishildi. Zarafshon vohasi shaharlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro, Karmana kabi qadimiy shaharlarini jahon andozalari darajasida taraqqiy ettirish maqsadida, ularning bosh rejalari tuzildi, shaharsozlik tartibga solinganligi shu bilan bir qator arxitektura inshootlarining muhofazasi haqida so‘z yuritiladi.

Mavzu dolzarbligi va metodologiyasi.

– O‘rta Zarafshon me‘moriy yodgorliklarni ta‘mirlash va qayta ilmiy, me‘moriy-uslubiy asoslarga ega va jahon sivilizatsiyasida o‘ziga xos milliy – “O‘zbek milliy maktabi”ga asos solinganligi yoritib berilgan;

– madaniy me‘ros ob‘ektlarini davlat tomonidan muhofazalash to‘liq amalga oshirilishi yuzasidan shaharlar bosh rejalari ishlab chiqilishida ilk bor xalq me‘morchiligi qadriyatlari pasportlashtirilgani, tarixiy arxitektura yodgorliklari tarkibiga kiritilgan noyob turar joy ob‘ektlari buyicha batafsil tarxlar tuzilgani, tipik va antiqa turar joylar davlat himoyasiga olinishiga tavsiyanomalar ishlab chiqila boshlanganligi manbalar asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Zarafshon vohasi me‘moriy yodgorliklarning tarixiy shakllanish asoslari, O‘zbekistondagi arxitektor olimlar va ta‘mirchi xalq ustalarining me‘moriy yodgorliklarni ta‘mirlash tajribalari hamda arxitektura yodgorliklarining konstruktiv echimlari aks etgan.

Mustaqillikka qadar, sovet davrida, me‘moriy obidalarni muhofaza qilish va ta‘mirlash ishlarining ommaviy asosda yo‘lga qo‘yilishiga kommunistik mafkura siyosati to‘sqinlik qilar edi. Sotsialistik o‘zgarishlarni nazarda tutgan “inqilobiy ruh”- yangi va eski shahar o‘rtasidagi tafovutni yo‘q qilish hamda ularni tenglashtirishga, shuningdek, din va qadriyatlarga qarshi qaratilgan g‘oyalarning hukmronligi sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilligida ko‘plab qadimiy shaharsozlik namunalari buzilishiga olib keldi. Ushbu radikal g‘oyalar Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Karmana va O‘zbekistonning boshqa tarixiy shaharlariga o‘nglab bo‘lmas zarar etkazdi. Qurilganidan buyon ta‘mirlanmay xarobaga aylangan va foydalanishga yaramay, tashlandiq holga kelib qolgan yodgorliklar juda ko‘p edi. Shu munosabat bilan me‘mor-muhandislar avvalo vayrona holatida bo‘lgan yodgorliklar qismlarini saqlab qolishni o‘z oldiga

maqsad qilib qo‘yishdi. Bu davrda O‘zbekistonda xalq ustalarining faol ishtiroki bilan mahalliy ta‘mirlash maktabi tashkil etildi va shakllandi. Ta‘mirlash ishlarida turli xil davrdagi me‘moriy yodgorliklarning loyihasi, shakllanish tarixi bo‘yicha V.L.Vyatkin, M.F.Mauer, M.E.Masson, B.N.Zasipkin, A.P.Udalenkovning o‘lchov ishlari, naqshinkor qoplamalar va o‘ymakor ishlarni qayd etuvchi rassomlar I.S.Kazakov, A.V.Isupov, M. V.Stolyarovlar fikr va maslaxatlari inobatga olindi. Ta‘mir ishlarini olib borishga xalq ustalari, me‘mor-quruvchilar Abduqodir Boqiev, Usta Shirin Murodov, Yusufali Musaev, Bolta Juraev, Jalol Jo‘raev, Quli Jalilov, karmanalik Usto Istam me‘morchilik, koshinkorlik va ta‘mirlashda katta tajribaga ega ustalar – Shamsiddin G‘ofurov, Akram Umarov, Ota Polvonov, Mirhamid Yunusov, Toshpo‘lat Arslonqulov va boshqalar jalb qilindi. Yodgorliklarni ta‘mirlash, konservalashtirish, muhandislik jihatidan mustahkamlash bo‘yicha ma‘lum an‘analari, qoidalar va usullar yuzaga keldi.

O‘zbekistonda me‘moriy yodgorliklarini ta‘mirlash ilmiy uslubining nazariy poydevorini taniqli olim, arxitektura mutaxassisi B.N.Zasipkin qo‘ydi. Uning ko‘p yillik kuzatishlari va amaliy tajribasi qator ilmiy nashrlarda o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston arxitektor olimlari va xalq ustalarining ta‘mirlash tajribalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ta‘mirga muhtoj har qanday obidaning eng avvalo buzilish sabablari aniqlanishi, ular bartaraf etilgandan so‘ngina ta‘mirlash ishlariga o‘tish mumkinligi qayd etildi. Uning tadqiqotlarida milliy me‘morchilik maktablari tarixiy an‘analari, ulardagi o‘xshashlik hamda hududiy farqlar masalasi qiyosiy o‘rganilgani e‘tiborga molikdir. B.N.Zasipkin ilmiy asarlarida O‘rta Osiyo davlatlari doirasida milliy me‘moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan unumli foydalanish borasidagi ishlar O‘zbekistonda samarali tashkil etilganligini ko‘p bora ta‘kidlab o‘tadi. Shuningdek, O‘zbekiston milliy me‘morchiligi namunalari mahobatiga yuqori baho beradi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritganidan keyin yurtimiz, xalqimiz tarixini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda haqqoniy tadqiq etish, qadimiy manbalarni xolislik bilan asl holida tiklash, davlatchilik tarixining ildizlarini ochib berish respublikamiz madaniy-ma‘naviy hayotidagi asosiy masalalardan biriga aylandi.

Tarixiy haqiqatni tiklashga davlat siyosati darajasida qaraldi. Bu hayotiy zarurat edi. Chunki o‘z ozodligini erkini qo‘lga kiritgan xalq ko‘p asrlar davomida bosib o‘tgan tarixiy yo‘lini aniq bilishi, buyuk ajdodlar merosidan to‘la bahramand bo‘lishi kerak edi. Bu millatimizning o‘zligini anglab etishi, istibdod davrida toptalgan g‘ururini tiklashi, yuksaltirishi, mamlakatimizning kelajak yo‘lini belgilab olishi uchun xizmat qilardi. O‘zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishning huquqiy asoslari yaratildi. Respublikaning Konstitusiyasi va boshqa qator qonunchilik hujjatlarida davlat idoralari va fuqarolarning bu boradagi burch va vazifalari aniq-ravshan o‘z aksini topdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 49-moddasida quyidagilar ta‘kidlangan: “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburlirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir”. Ayni vaqtda 1998 yil 28 avgustda qabul qilingan “Madaniy meros boyliklarini olib chiqib ketish va olib kelish to‘g‘risida”gi qarori, 2001 yil 30 avgustda qabul qilingan “Madaniyat merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi

qonun, 2002 yil 4 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi” kabilar tarixiy-madaniy va me‘moriy yodgorliklarning muhofaza qilinishining huquqiy negizi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi”ning 64-moddasida, “O‘zbekiston Respublikasi jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi”ning 132-moddasida tarixiy-madaniy va me‘moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibining buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan javobgarlik ko‘zda tutildi. Tarixiy va madaniy yodgorliklarning holatini doimiy ravishda nazorat qilib borish, bu boradagi ayrim negativ hollarning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimliklari qoshida tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

Ushbu idoraning inspektorlari zimmasiga joylarda tarixiy va madaniy yodgorliklar holatining monitoringini yo‘lga qo‘yish hamda muntazam ravishda tegishli davlat organlariga takliflar bilan chiqish vazifasi yuklatildi. 1996 yil aprel oyida O‘zbekiston “Butunjahon madaniyat va tabiat merosini saqlash kovensiyasi”ga qabul qilindi. Mazkur konvensiyaning umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan boyliklarini hisobga olish “Butunjahon merosi ro‘yxati”ga 1996 yil iyun oyida respublikaning 22 ta tarixiy yodgorligi ro‘yxati yuborildi. Ushbu davrda O‘zbekiston moddiy-madaniy merosini o‘rganish, muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini nazorat qiluvchi davlat muassasalari qayta tashkil etildi va faoliyati takomillashtirildi. Misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi “Madaniy meros departamenti”, “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi”ning milliy me‘moriy merosni asrash va ulardan foydalanishga oid faoliyatini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mazkur muassasalar rahbarligida davlat muhofazasiga olinishi zarur yodgorliklar ro‘yxati kengaytirildi. Shu paytga qadar etarlicha o‘rganilmagan yodgorliklarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, tiklash va ulardan respublika iqtisodiy salohiyatini oshirishda, turizmni rivojlantirishda keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi davlat dasturlari ishlab chiqildi. Shu munosabat bilan, tarixiy-me‘moriy yodgorliklar va shaharsozlik ob‘ektlarini qamrab olga xalqaro sayyohlik yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Navoiy viloyatida ham ko‘plab xalqaro anjumanlar va ilmiy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, 1999 yili O‘zbekiston Respublikasining turli hududlaridan qator tarixiy-madaniy ob‘ektlar YuNESKOning, Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritish uchun jo‘natildi. Jumladan: Navoiy viloyatidan ham 4 ta tarixiy-madaniy ob‘ekt, Karmana shahridagi Qosim Shayx kompleksi, Mir Sayyid Bahrom maqbarasi, Raboti Malik karvonsaroyi va Sardoba yodgorliklari tanlab olinib ushbu ro‘yxatga kiritildi.

Vaholanki ularning hech biri shu paytga qadar, jahon madaniy-merosi ro‘yxatiga kiritilgani yo‘q edi. Biroq keyinchalik ulardan Raboti Malik karvonsaroyi, Sardoba bilan birgalikda Sarmishsoy va Xonbandi suv ombori YuNESKOning dastlabki nomzodi sifatida ro‘yxatiga kiritilishi e‘tirof etildi. Ta’kidlash kerakki, Navoiy viloyati ham O‘zbekiston va jahon tarixida muhim ahamiyatga ega. Navoiy viloyati tarixiy-me‘moriy obidalarini ta’mirlesh, asrab-avaylash va xalqaro targ‘ib qilish masalalari O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan

so‘ng sezilarli ravishda jonlandi. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti, Navoiy viloyatiga tashrif buyurib, Xalq deputatlari Navoiy viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etadi. Tashrif jarayonida viloyatda joylashgan madaniy yodgorliklar, ularning tarixi bilan yaqindan tanishib, Karmana va uning atrofidagi tarixiy obidalar, Karmanada umrguzaronlik qilgan ulug‘ zotlar, Karmananing yoshi, uning tarixda tutgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma‘naviy mavqeiga alohida e‘tibor qaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 27-may PF-2323-sonli farmoni esa Navoiy viloyatidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab umrini uzaytirilishida dastlabki qadamlardan biri hisoblandi. Mazkur qarorning bosh qismida Navoiy viloyati Navoiy shahri tarkibida Karmana tumanini tashkil etish, Karmana shahrining o‘tmishdagi shuhratini tiklash, tarixiy obidalarni qayta ta‘mirlash imkoniyatini kengaytirish, madaniy-maishiy, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish borasida bir qator topshiriqlar nazarda tutildi. Farmonni zo‘r shodiyonalik bilan kutib olgan Navoiy viloyat faollarining Birinchi Prezidentga: “Yana qadr topdi Karmana” sarvlavhali ehtirom va minnatdorchilik xatlaridan quyidagi satrlarni o‘qish mumkin: “Ishonchimiz komilki, yaqin kelajakda Karmana shahri va uning atrofida keng ko‘lamdagi obodonlashtirish ishlari amalga oshadi.

Markaziy Osiyo madaniyatining noyob yodgorliklari Raboti Malik, Sardoba, Mir Sayyid Bahrom, Qosim Shayx, Xo‘ja Xisrav, Mirzachorbog‘ kabi tarixiy obidalar qaytadan ta‘mirlanib, minglab sayohatchilarni o‘ziga chorlaydigan tabarruk ziyoratgoh joylarga aylantiriladi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta‘kidlaganidek: “Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo‘lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta‘bir joiz bo‘lsa, mamlakatimizning duru-javohirlar xazinasidir”. Navoiy viloyati hududi nafaqat hozirgi O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyoda ham muhim savdo yo‘llari kesishgan, qulay tranzit va logistika imkoniyatlarini mujassam etgan, Buyuk ipak yo‘lining asosiy tarmoqlarini birlashtirgan, shuningdek, Samarqand va Buxoro kabi yirik savdo-iqtisodiy va madaniyat markazlari oralig‘idagi, ularni bog‘lab turgan qadimiy tarixga ega makon sifatida ma‘lum.

Xulosa xuddi shu omillar mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim asos bo‘lgan. O‘tgan davr ichida Navoiy viloyatida ham keng ko‘lamli ishlar: tarixiy-madaniy muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni ta‘mirlash jarayoni bosqichma-bosqich o‘rganilib, ta‘mirlash, restavrasiya ishlari amalga oshirildi va tadbqiq etish jarayonlari boshlandi. Ularni o‘rganish jarayonida, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 2019 yil 28 iyundagi 401 qaroriga muvofiq Navoiy viloyati bo‘yicha moddiy-ma‘naviy meros ob‘ektlarining davlat kadastriga kiritilgan va yangilangan ro‘yxati e‘lon qilindi. Jumladan, jami 437 ta madaniy meros ob‘ektlari ro‘yxatga olinib, shundan 232 ta tarixiy, 121 ta arxeologik, 63 ta me‘moriy yodgorliklar, shundan 13 tasi respublika va 50 tasi mahalliy ahamiyatga ega bo‘lib 48 tasi monomental yodgorliklar sifatida rasmiylashtirilgan.

FOYDALANILGAN MANBAA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Немсева Н.Б. Историческая справка/Научно проектные работы по консервации останков караван-сарая Рабат-и Малик в Навоийской области. Историческая справка//Архив Узтаъмиршунослик. № X-8061.

2. Отчет о научно-исследовательской работе. (“Подготовка научной документатсии объектов культурнога наследия для включения в Список всемирнога наследия ЮНЕСКО по серийной трансграничной номинации”). “Великий шелковый путь”: Заравшан-Каракумский коридор. Система менеджмента для объектов Зеравшан-Каракумского коридора-объекты Навоийской области. -Самарқанд: 2020.

3. Отчет о научно-исследовательской работе. (“Подготовка научной документатсии объектов культурнога наследия для включения в Список всемирнога наследия ЮНЕСКО по серийной трансграничной номинатсии”). “Великий шелковый путь”: Заравшан-Каракумский коридор. Система менеджмента для объектов Зеравшан-Каракумского коридора-объекты Навоийской области. -Самарқанд: 2020.